

## **ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA DAVR RUHI VA INSONIY MUNOSABATLAR TALQINI**

О‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

О‘zbek va chet tillari kafedrası professori

**Baltayeva Ikbal Tadjibayevna**

*Annotatsiya:* Maqolada iste‘dodli ijodkor Ulug‘bek Hamdamning asarlarida badiiy mahorati masalalari, xususan, o‘z asarlarida murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzular talqini, davr ruhining ifodasi, uslubining o‘ziga xosligi va tasvirda insoniy munosabatlarning yorqin aks ettirilishi bilan o‘zbek adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgani xususida fikr yuritiladi.

*Kalit so‘zlar:* U.Hamdami, yozuvchi, shoir, dramaturg, “Muvozanat”, badiiy-estetik tamoyil, “Isyon va itoat”, “Yolg‘izlik”, “Tosh”, davr ruhi, insoniy munosabatlar.

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХА ЭПОХИ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА**

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Профессор кафедры узбекского и иностранных языков

**Балтаева Икбал Таджибаевна**

*Аннотация* В статье рассматриваются вопросы художественного мастерства в творчестве талантливого художника Улугбека Хамдама, в частности, большое влияние, которое он оказал на узбекскую литературу посредством интерпретации в своих произведениях сложных социально-философских тем, выражение духа эпохи, своеобразие его стиля, яркое отражение человеческих взаимоотношений в образе.

*Ключевые слова:* У. Хамдам, писатель, поэт, драматург, «Гармония», художественно-эстетический принцип, «Бунт и покорность», «Одиночество», «Камень», дух времени, человеческие отношения.

# INTERPRETATION OF THE SPIRIT OF THE ERA AND HUMAN RELATIONS IN THE WORKS OF ULUGBEK HAMDAM

Uzbekistan State University of Physical Education and Sports

Professor of the Department of Uzbek and Foreign Languages

Baltayeva Ikbal Tajibaevna

**Abstract:** The article examines the issues of artistic mastery in the works of the talented artist Ulugbek Hamdam, in particular, the great influence he had on Uzbek literature through the interpretation of complex socio-philosophical themes in his works, the expression of the spirit of the era, the originality of his style, a vivid reflection of human relationships in the image.

**Keywords:** U. Hamdam, writer, poet, playwright, "Harmony", artistic and aesthetic principle, "Rebellion and Submission", "Loneliness", "Stone", spirit of the times, human relationships.

## KIRISH

Ulug‘bek Hamdam – atoqli o‘zbek yozuvchisi, shoiri va dramaturgi. Uning teranligi va o‘ziga xosligi bilan tanilgan ijodi o‘zbek adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Hamdam o‘z asarlarida murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzularga to‘xtalib, ko‘pincha metafora va timsollardan o‘rinli foydalanadi. Nazarimizda, milliy mustaqillik yillarida ko‘plab o‘quvchilarning e‘tirof va e‘tiboriga loyiq bo‘lgan asarlardan biri taniqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidir. Ushbu asar ilk bor “Jahon adabiyoti” jurnalida e‘lon qilinganidan buyon o‘tgan yigirma yildan ortiq vaqt ichida qayta-qayta bosilgan, ko‘p o‘qilgan va bahsmunozaralarga sabab bo‘lgan. Bunga mazkur romanning dolzarb va qiziqarli g‘oyaviy-badiiy mazmunga ega ekanigina emas, balki Istiqlol davri o‘zbek romanchiligiga xos uslubiy izlanishlarning yetakchi tamoyillarini o‘zida aks ettirganligi ham sabab bo‘ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh [2] kitoblarida badiiy tahlil turlari, tahlil turlarining o‘zaro aloqadorligini belgilay olishi; badiiy tahlil bosqichlari, badiiy tahlilning genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik, filologik yo‘nalishlari, ilmiy tahlil va o‘quv tahliliga xos tamoyillarni bilishi; badiiy tahlilda shakl va mazmun, badiiy matni tekshirishdagi ilmiy maktablarni tavsiflay bilish; badiiy tahlilda adabiy turga xos xususiyatlarni hisobga olish, lirik, epik, dramatik asarlarni tahlil qilish yo‘llarini bilishi haqida fikr yuritiladi.

Q.Yo‘ldoshov[3] maqolasida modernizmni falsafada aristotelcha-gegelcha-kantcha klassik qarashlardan yuz o‘girib, uni inkor etish natijasi o‘laroq yuzaga kelgan ilmiy-estetik fikrlar tizimi sifatida ta’riflagan. ... Shuningdek, olim modernistlar o‘zigacha mavjud bo‘lgan barcha adabiy tajribalarni inkor etib, tamomila yangicha yo‘nalish yaratishga uringanliklari, modernizmda borliq hodisalari hamda odamning muayyan maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatigina emas, balki insondagi klassik san’atning e’tiboridan chetda qolib kelgan zerikish, siqilish, tushkunlik, qo‘rquv singari ruhiy tushuncha va holatlar ham badiiy tasvir obyeksi maqomiga ko‘tarilganini o‘rinli qayd qilgan edi.

I.Yaqubov [3] monografiyasida mustaqillik davri o‘zbek romanlaridagi poetik yangilanishlar va ularning yuzaga kelishiga ta’sir etgan omillar joriy adabiy jarayon konteksti va jahon adabiyoti aspektida yaxlit nazariy qarash va tasavvurlar hosilasi sifatida oydinlashtirilgan, hayotiy-estetik asoslari ko‘rsatilgan.

Y. Solijonov [9] adabiy tanqidiy maqolalar, suhbatlar kitobi badiiy adabiyotga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallab yozilgan bo‘lib, esse hamda suhbatlarida XXI asrning dastlabki o‘n yilligida yaratilgan badiiy asarlarda real hayotning ko‘zgudagi rangin manzaralari, ayrim qora dog‘lari to‘g‘risida xolisona fikr yuritiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari”

---

mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida badiiy tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan holda tadqiq etilgan.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

“Muvozanat”ning ko‘pchilik e‘tiboriga sazovor bo‘lishini ta‘minlagan badiiy-estetik tamoyillar nimalardan iborat edi? “Muvozanat” an‘anaviy romanlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

“Muvozanat” romanining tasvir yo‘sinida A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, M.Oybek, A.Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh. Xolmirzayev, O‘.Hoshimov va Omon Muxtorlar ifoda tarziga yoki ularni yangilaganlik alomatlari nimalarda ko‘rinadi?, degan bir qator muhim masalalar tevaragida hali o‘zbek adabiyotshunosligida mulohazalar to‘xtagani yo‘q.

Ayrim munaqqidlar bu roman kompozitsiyasini goh modernizmning u yoki bu o‘zaniga, goh strukturalizmning tushunarsiz g‘alviriga va goh yana o‘zga “izm”lar qolipiga solib tadqiq qilishga urindilar. Ayrim adabiyotshunoslar esa unda an‘anaga ergashish va vorisiylik qat‘iy ekanini qayd etishmoqda. Lekin roman hamon yashashda, o‘qilishda davom etmoqda, ko‘plab yangi o‘quvchilarini topmoqda. Yuqorida qo‘yilgan qator savollarga uzil-kesil va hammani qoniqtiradigan yo‘sinda javob berishning imkoni ham, ehtimolki, keragi ham yo‘qdir. Negaki, har qanday badiiy asar turli davrlardagi o‘quvchilarga turlicha ta‘sir qiladi va ular tomonidan turfa xil yo‘sinda qabul etiladi va shunday bo‘lishi tabiiy hamdir. Chunki vorisiylik an‘anasi bashariyat hayotining har bir bosqichida yashagan odamlarning tafakkuri va ruhiyat olamida o‘z nuqsini qoldiradi. Binobarin, insoniyatning badiiy-estetik didi ham tinimsiz o‘zgarib turadi.

Hamma zamonlarda adabiy ijodning jamiyat e‘tirofiga loyiq mahsuli o‘ziga xos ijtimoiy hodisa o‘laroq ijodkorni yetishtirgan shart-sharoit, ma‘naviy-ahloqiy muhit, uslubiy yo‘nalishidagi betakrorlik singari xususiyatlar takrorlanmas adabiy

obida sifatida qoladi. Zero, ijodkorning voqelikdagi narsa-hodisalarga yondashuv tarzi, hayotdagi tartibsiz voqea-hodisalar orasidan o'ziga kerakli, deb hisoblaganlarini tanlab olishi va badiiy tartibga solib tasvirlashi individuallikni, ba'zan, hatto, adabiy yangilovchilikni keltirib chiqaradi. Shunisi ham borki, har qanday yangilanish adabiy vorisiylik an'analari doirasidagina amalga oshadi.

Ana shu jihatdan olib qaralganida, "Muvozanat" roman-mushohada yo'siniga mansub bo'lganligi bois asar badiiy to'qimasida ijtimoiy-falsafiy o'ylar, psixologik kechinmalar ko'lamining berilishi epik xronotop yoki qahramonlarora muloqot (dialog)dan ustunlik qiladi. Unda zamondoshlarimizning g'oyat chigal va murakkab taqdir yo'li XXI asrning tezkor taraqqiyot maromi prizmasi orqali chiziladi. Asarning kompozitsion markazida turgan Yusufning shirin bolalik xotiralari va so'nggi o'n besh-yigirma yillik iztiroblar shiddati og'ushidagi hayoti, azoblar komidagi ruhiy kechinmalari Yusuf ota va ona, Yusuf-Muhammadjon aka, Yusuf-Amir, Yusuf-Oygul, Yusuf-Said, Yusuf-Mirazim, Yusuf-Zahro va boshqa shaxslararo munosabatlar o'rami orqali ochila boradi. Ularning har biri o'zgacha dunyo, o'z dunyoqarashlari, his-tuyg'ulari, oilaviy muammolari bilan rang-barang shaxsiyat egalari sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi ana shu xilma-xil badiiy siymolar qiyofasi, ularning munosabatlaridagi adoqsiz chigalliklar fonida odamning yashashdan maqsadi, uning Alloh va jamiyat oldidagi burchini ado etish yo'lidagi yondashuvlari falsafiy-ruhiy to'lg'anishlar tasviri orqali ko'rsatib berilgan.

Iste'dodli adib o'z romanida boqimandalik yoki jamiyatdagi tub o'zgarishlarni chetdan turib, loqayd kuzatuvchilik kayfiyatidan voz kechib, yashash uchun kurasha boshlagan, tafakkuri uyg'ongan millat vakillarining betakror qiyofasini yarata olgan. Badiiy adabiyotdagi vorisiylik va turli davr hamda shaxslarning o'ziga xosligini badiiy aks ettira bilishda ko'rinadigan yangilovchilik xususiyatlari Ulug'bek Hamdam asarida o'zaro uyg'unligi va ta'sirchanligi bilan namoyon bo'ladi.

---

Yozuvchi “Muvozanat” va undan keyin yaratilgan barcha romanlarida o‘zbek romanchilik maktabida shakllantirilgan adabiy tajribalardan unumli foydalangan. Chunonchi, u Qodiriy va Cho‘lpondan obrazlarni milliy ruhiyat o‘ramida tasvirlash mahoratini o‘zlashtirgan bo‘lsa, Oybekdan timsollar xatti-harakatini ijtimoiy hayot bilan asoslashni, Abdulla Qahhordan personajlar tasviridagi aniqlikni, Odil Yoqubovdan qahramonlar ruhiy dunyosini shiddatli o‘ylar og‘ushida yorqinroq ko‘rsatishni o‘rgangan. Biroq Ulug‘bek Hamdam ustoz adiblarning an‘analarini o‘zlashtirish bilangina kifoyalanib qolganida, asarlari kitobxonlar e‘tiborini qozonmagan, boshqa ayrim asarlar qatori unutilgan bo‘lardi.

Ulug‘bek Hamdam adabiy an‘analarga ijodiy munosabatda bo‘ldi. Ulardagi diqqatga loyiq qirralarni bugunning qarashlari, o‘zining badiiy-estetik meni, iste’dodining betakror yolqini bilan nurlantira oldi. Shu sababli “Muvozanat”ning qahramonlari o‘quvchilar ko‘nglidan joy oldi. Bu timsollarning intilishlari, o‘y-xayollari, orzu-istaklari kitobxonlarga ham yuqdi. Zero roman qahramonlari ustozlar tasvirlagan davr tuyg‘ularini emas, balki o‘z davrining hislarini tuyushardi. Ularning iztirobu intilishlari kitobiy emas, hayotiy edi.

Ma’lumki, har bir davr o‘z aqidalari, dunyoqarashi, estetik qadriyatlarini ilgari suradi. Mavjud ijtimoiy-psixologik vaziyat, nazariy asos badiiy tizimga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiyki, milliy ma’naviyat jarayonini shakllantirishda ruhiy munosabatlarning ham shaxsiy, ham ijtimoiy mohiyatini badiiy tadqiq etish, an‘anaviy va zamonaviy badiiy tamoyillarning uzviy aloqadorligi tajribalarini umumlashtirish, publitsistik-falsafiy tasvir ko‘lamini kengaytirish, turli badiiy shakllarni uslubiy-mazmuniy izlanishlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Modomiki, mohiyatni yangilab turishga yo‘naltirilgan adabiyot jamiyat belgilab bergan mezonlarga tayangan holda rivojlanar ekan, ongning tadrijiy takomili poetik tafakkur usul va vositalari, ifoda va tasvir imkoniyatlarini ham tabiiy ravishda o‘zgartirib yuboradi. Demak, o‘z san’atining spetsifik xususiyatlarini aniqlab olishda ichki – badiiy-psixologik omillar bilan bir qatorda, tashqi – ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotini ham hisobga olish lozim.

---

Ulug‘bek Hamdam zamonaviy o‘zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko‘p tarjima qilinayotgan va xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning “Isyon va itoat” romani, “Yolg‘izlik” qissasi, o‘nga yaqin hikoyasi va she‘rlari rus tiliga tarjima qilindi. Ijodkorning “Tosh” degan hikoyasi va bir qancha she‘rlari hatto ingliz tiliga o‘girildi. “Muvozanat” romani va “Tosh” hikoyasi Amerikada e‘tirof etildi. Ulug‘bek Hamdamning mahorati tufayli Mavlono Rumiyning “Ichindagi ichindadir” (2001) va professor U.Turonning “Turkiy xalqlar mafkurasi tarixi” nomli asarlari turk tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ulug‘bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o‘z o‘quvchilarini topgan. Uning asarlari o‘quvchini tanlaydigan asarlardir. Chunki uning ijodidan bahramand bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchi ma‘lum intellektual tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Ulug‘bek Hamdamning adabiy an‘analar doirasida qolib ketmaganligi yozuvchining “Muvozanat”dan keyingi asarlarida ham yaqqol ko‘zga tashlandi. Chunonchi, u o‘zbek adabiyotiga birinchi bo‘lib ko‘proq falsafiy o‘ylar og‘ushida yashaydigan adabiy qahramonlarni olib kirdi. Uning “Sabo va Samandar”, “Isyon va itoat”, “Yo‘l”, “Na‘matak” singari romanlaridagi qahramonlarga yondashuv tarzi, ularning yelkasiga ortilgan badiiy yuk ko‘lami oldingi adabiy tajribalarda ko‘rinmagan edi.

Adib o‘z qahramonlarini ko‘proq o‘y-xayollar quchog‘ida ko‘rsatishga intiladi. Yozuvchi “Na‘matak” romanida nafaqat badiiy tasvir yo‘sini, balki adabiy shaklni tanlash va unga rioya qilish borasida ham mavjud an‘analarni yangilashga qodir ijodkor ekanligini ko‘rsatadi. Adibning ushbu mini romanining hajmi yarim bosma toboqdan ham kichikroqdir. Muhimi shundaki, yozuvchi o‘ta kichik hajm doirasidagi asariga muallif rostmana bir romanga yuk bo‘ladigan epik konseptni joylay bilgan.

Ma‘lumki, bugungi kun adabiy jarayonida hikoya janrining ham faolligi, sermahsulligi, serqirraligi, rang-barangligi adabiyotshunoslik fani oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda. So‘nggi paytlarda adabiy tanqidda hikoyachilikda yuz

---



berayotgan yangiliklar, ijobiy o'zgarishlar, yutuq va nuqsonlarni tez anglab, tahlil etishga astoydil kirishildi. Janrga xos turli muammolar bag'ishlangan alohida yirik tadqiqotlardan tashqari birgina hikoyani chuqur tahlil etish orqali janrning yangi imkoniyatlari va asosiy xususiyatlarini ochib beruvchi o'nlab maxsus maqolalar ham paydo bo'ldiki, bu adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning munosib yutug'idir. Ayni damda bunday tadqiqotlarning ko'pi Ulug'bek Hamdam atrofida kechayotganligi ham bejiz emas.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda shuni aytish mumkinki, yozuvchi Ulug'bek Hamdam ijodida mavzular ko'lami u qadar keng bo'lmasa-da, yangi, dolzarb muammolarning ko'tarib chiqilishi va chuqur falsafiy mushohada asosida talqin etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug'bek Hamdam o'zbek romannavislik va hikoyanavisligi an'analarini davom ettirgani holda, shakl masalasining kengligi, obrazlar tanlovi, modernistik talqinlarga murojaat jihatidan yangilanishlar yaratdi. Ayniqsa, yozuvchining tush-hikoyalari bayon uslubi, kutilmagan yechim bilan yakun topishi, katarsis hodisasining millat va yosh jihatidan qat'iy nazar chuqur anglanishi kabilar bilan novatorlik kasb etadi. Mazkur hikoyalarda mifologik, diniy, falsafiy qarashlar uyg'unlashib ketgan. Xullas, Ulug'bek Hamdamning eng mashhur asarlari qatorida O'zbekistonda ham, xorijda ham e'tirof etilgan she'riy, roman va pyesalari bor. Uning asarlarida davr ruhi aks ettiriladi va insoniy munosabatlar chuqur tahlilga tortiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари.–Тошкент: Камалак, 2016. –462 б.
- 2.Йўлдошев Қ. Модернизм: илдиз, моҳият ва белгилар// Ёшлик. 2014. № 9.
- 3.Ёқубов, Исломжон. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография.– Тошкент: “Nurafshon business”, 2021. – 336 б.
- 4.Холбеков М. Бадий адабиётда модернизм тавсифи//Ёшлик. 2011. 3-сон.
- 5.Улуғбек Ҳамдам. Йўл. Роман// Ёшлик, 2015- йил, 6-7-сон.



- 6.Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. Роман.–Тошкент: Янги аср авлоди. 2018. –366 б.
- 7.Улуғбек Ҳамдам.Мувозанат. Роман. Янги аср авлоди.–Тошкент,2021.–334 б.
- 8.Улуғбек Ҳамдам.Исён ва итоат.Роман.Тошкент:Янги аср авлоди,2003.140 б.
- 9.Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танқидий мақолалар, суҳбатлар.– Тошкент:Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. –148 б.
-